



<https://doi.org/10.30563/turklad.1300775>

İntihal / Plagiarism

This article was checked by



programında bu makale taranmıştır

Makale Bilgisi / Article information

| | |
|-------------------------------|---|
| Makale Türü / Article types | : Araştırma Makalesi / Research article |
| Geliş Tarihi / Received date | : 22.05.2023 |
| Kabul Tarihi / Accepted date | : 07.12.2023 |
| Yayın Tarihi / Date published | : 20.12.2023 |

Atıf / Citation

Kurbanova, M. ve Sulaymanova, D. (2023). Gap va So‘z Kengaytiruvchilarida Markaz Qurshovlilik Munosabati. *Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRKLAD)*. 7. Cilt, 2. Sayı, 239-248.

**GAP VA SO‘Z KENGAYTIRUVCHILARIDA MARKAZ QURSHOVLILIK
MUNOSABATI**

Center and subordinate relationship in sentence and word expanders
MUKHABBAT KURBANOVA¹ - DILOBAR SULAYMANOVA²

Öz

Ushbu maqolada gapning semantik-struktur munosabatida so‘zlar bog‘lashuvi, ularning amaliy va noamaliy mavqeyi masalasi, gapning qurilish ashyosi bo‘lgan so‘zning gap qurilishiga bevosita yoki bilvosita ta’siri, ya’ni markaz sifatida o‘z atrofida ma’lum bir leksemalarni birlashtirishi yoki kengaytiruvchi sifatida qurshov vazifasini bajarish masalasi tahlilga tortiladi. Sintaksisning fundamental muammolaridan biri pog‘onali sintaktik tahlil, sintaktik aloqalar tushunchalari, gap bo‘laklarining iyerarxiyasi, markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda namoyon bo‘lishi, sodda gaplarda markaz va qurshov munosabatining voqelanishi, gapning LSQida so‘zlar bog‘lashuvini tahlil qilish orqali aktantlarning gap qurilish sathidagi vaziyatini aniqlashtirish, gapning til bosqichidagi lisoniy gap bo‘laklari (takibiy qismlari) o‘rtasidagi semantik, grammatik bog‘lanishni oydinlashtirish gap va so‘z kengaytiruvchisining iyerxiyadagi maqomi masalasi yoritiladi.

Anahtar Kelimeler: Gapning LSPi, Valentlik, Aktant, Gap Kengaytiruvchisi, So‘z Kengaytiruvchisi

¹ Prof, Dr., National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
El-mek: qurbonova2007@mail.ru

² ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-2303-0777>

² PhD student, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
El-mek: dilobar7796@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0003-9162-0044>

Abstract

In this article, the connection of words in the semantic-structural relation of the sentence, the question of their practical and non-practical position, the direct or indirect effect of the word, which is the construction material of the sentence, i.e. the issue of uniting certain lexemes around itself as a center or performing the function of subordinate word as an expander will be analyzed. One of the fundamental problems of syntax which is step-by-step syntactic analysis, concepts of syntactic relations, hierarchy of clauses, the manifestation of the center-subordinate relationship at the syntactic level, the realization of the center-subordinate connection in simple sentences, clarifying the situation of actants at the level of sentence construction through the analysis of the connection of words in the linguistic syntactic pattern of the sentence (LSP), determination of the semantic and grammatical connection between the parts (components) of the linguistic sentence at the language stage of the sentence, the question of the status of sentence and word expander in hierarchy will be covered.

Keywords: LSP, Valency, Actant, Sentence Expander, Word Expander

1. Kirish

Hozirgi davr tilshunosligining salmoqli yutuqlaridan biri sifatida til va nutq hodisalarini farqlash, idrok etish borasidagi tadqiqotlarni alohida ta'kidlash lozim. Chunki bunday tadqiqotlar silsilasida bevosita kuzatishga chiqmagan, ammo UMISga ega til qolipi mavjudligi va bu qolip nutqda moddiylik tarzida namoyon bo'lishi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu esa ushbu qolipning nutq jarayonida so'zlovchining kommunikativ maqsadi tufayli kengaya olish qonuniyatlarini o'rganishga tomon yo'l ochdi.

O'zbek tilshunos olimlari olib borgan izlanishlarda gapning sistemaviy tadqiqi masalasi yoritilib, sodda gap qurilishini lisoniy bosqichda tadqiq etish asoslari yaratildi. Turkiyshunoslikda so'z bog'lashuvi-valentlik nazariyasi sovet va rus lingvisti-turkolog S. N. Ivanov tomonidan kiritilgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu nazariyaning yaratilishi I. Qo'chqortoyev nomi bilan bog'liqdir (Qo'chqortoyev, 1977:4).

Gapda anglashilayotgan ob'yektiv mazmun muayyan vositalar, ya'ni so'zlar yordamida ifodalanadi. Gapning sintaktik strukturasi tashkil etgan ana shu elementlar tilshunoslikda turlicha atamalar bilan yuritiladi. Jumladan, an'anaviy tilshunoslikda bu elementlar *gap bo'laklari* deb atalsa, A. M. Muxin asarlarida *sintaksema*, G. Zolotova tadqiqotida *sintaktik forma* deb nomlanadi.

2. Markaz-qurshovlilik munosabatining o'rganilishi

Gap bo'laklari konsepsiyasi tilshunoslikda XX asrning o'rtalariga qadar gapning sintaktik analizida yetakchi rol o'ynadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan gap bo'laklari konsepsiyasi hech qachon bir xil bo'lgan emas. Bu masalaga turlicha qarashlar turli davrdagina emas, balki bir davrning o'zida ham mavjud bo'lgan (Храковский, 1985:124). An'anaviy tilshunoslikdagi gap bo'laklariga va ularni bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishda kuzatiladigan xilma-xillik bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishning ob'yektiv kriteriyalaridan kelib chiqdi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning differentsial belgisi ularning kesimiy asosga kirish/kirmasligi, kesimiv asosni hosil qilishda qatnashish/qatnashmasligi hisoblanadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning differentsial belgisi sifatida kesimiv asos gapning konstruktiv yadrosini ko'rsatadi, konstitutiv birliklari hisoblanadi (Nurmonov, 1988:41). Gapning struktur sxemasini belgilashda abligator bo'laklar-majburiy bo'laklar bo'lgan ega va kesim asosiy mezon hisoblanadi va kesimiv minimumni tashkil qiladi. Kesimiv minimumni ko'rsatuvchi bu bo'laklar shu gapning konstuentlari sanaladi. Fakultativ bo'laklar mos ravishda abligator yoki konstitutiv bo'laklardan biriga (shuningdek, fakultativ bo'lak xuddi shunday bo'lakka) bog'lanib, ularni aniqlaydi, izohlaydi yoki to'ldiradi, natijada konstuent yoki fakultativ bo'lak kengaytirib kelishga xizmat qiladi.

XIX asrning yarmidan boshlab vujudga kelgan munosabat logikasiga koʻra, hukm asosida faqat kesim turadi, yaʼni gapning konstitutiv elementi kesim, qolganlari shu kesim valentliklarini reallashtiruvchi, grammatik jihatdan unga tobe boʻlgan boʻlaklar-argumentlar yoki aktantlar hisoblanadi

Ushbu munosabat logikasiga koʻra, gapda aktantlar oʻzlari tobelangan boʻlak bilan birgalikda quyidagi 4 xil bogʻlanishni yuzaga keltiradi:

1. Predikativ aloqa-ega-kesim bogʻlanishi.
2. Atributiv aloqa-aniqlovchi-aniqlanmish bogʻlanishi.
3. Kompletiv aloqa-toʻldiruvchi-toʻldirilmish aloqasi.
4. Kopulyativ aloqa-uyushiq boʻlaklar oʻrtasidagi aloqa (Nurmonov, 1988: 49).

Anʼanaviy tilshunoslikda atributiv aloqadagi cheklanganlik xususiyati borki, bunda aniqlovchining gapdagi maqomi, yaʼni konstruktiv boʻlak boʻlish-boʻlmasligi boʻyicha turlicha qarashlar mavjud. Buni turkologlar oʻz tadqiqotlarida aniqlovchining gapdagi miqdoridan qatʼi nazar, atributiv aloqadagi hokim boʻlak-aniqlanmish tahlilda oʻz sintaktik pozitsiyasiga ega boʻlishi, oʻz aktanti (aniqlovchi) bilan birga bitta gap boʻlagi boʻlishi taʼkidlashadi (Баскаков, 1961:67), atributiv aloqa gapning tuzilish doirasiga kirmasligi aytib oʻtiladi (Дмитриев, 1961:28).

Aytib oʻtish joizki, zamonaviy tilshunoslikdagi sistemaviy tadqiqotlarga jiddiy eʼtibor berilishining samarasi oʻlaroq lisoniy faktlarga avtonom holda yondashilmay, balki har bir lisoniy hodisaning tub mohiyati ochilishiga eʼtibor berilmoqda, natijada lisoniy hodisalar oʻrtasidagi mazmun-mohiyatning yoritilishi markaziy oʻrin egallamoqda.

Oʻz navbatida lisoniy birliklarning muayyan birlashtiruvchi maʼno asosida maʼlum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda “maydon nazariyasi”ni vujudga keltirdi (Iskandarova, 1999: 44). Lisoniy birliklarning muayyan maʼno asosida birlashuvi, shuningdek, maʼlum bir tildagi lugʻaviy birliklarni shunday mazmuniy uyalarga birlashtirish yoki butunni mazmun asosida maʼlum qismlarga ajratish dastlab Yevropa tilshunosligida vujudga keldi; M. Pokrovskiy, I. Trir, L. Vaysgerber, Yu. N. Karaulov, G. S. Shchur kabi olimlar tadqiqotlari natijasida nazariya oʻz rivojlanish bosqichiga chiqdi, keyinchalik oʻzbek tilshunosligida “sistema” talqini asosida I. Qoʻchqortoyev, A. Nurmonov, R. Rasulov, E. Begmatov tadqiqotlarida yoritildi.

Maydonda soʻzlarning mazmuniy aloqasi, yaʼni umumiy maʼnoga ega boʻlgan leksik birliklarning-toʻplamlarning kesishishi markaz va qurshov nazariyasining mazmun-mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Maʼlumki, turli turkumlarga mansub boʻlgan, oʻzaro mazmuniy munosabatda boʻluvchi soʻzlar sinfi turkumlararo leksik maydonni tashkil qiladi (Iskandarova, 1999: 73). Markaz va qurshov munosabatida elementlar (kengaytiruvchilar) munosabatini toʻlaroq anglash uchun ularning tushunchaviy aspektini tahlil qilish taqozo etiladi. Chunki mantiq asoslariga koʻra tushunchalar oʻzaro taqqoslanadigan, yaʼni tarkibida umumiy elementlari boʻlgan va taqqoslanmaydigan, yaʼni tarkiban umumiy elementlarga ega boʻlmagan tushunchalar guruhiga ajratiladi

Denotat (sintaktik bogʻlanishda hokim qism vazifasini bajaruvchi soʻz, ifodalalmish)ning designat (ifodalovchi, ongda denotatning aks etishi uchun yordam beruvchi soʻz) bilan oʻzaro mazmuniy aloqadorlik tufayli tobe-hokimlik munosabati, yaʼni markaz va qurshov munosabati yuzaga keladi.

Bu hodisani mazmuniy maydon munosabatida quyidagicha ko'rsatish mumkin:

| Birliklar | izoh | Elementlar munosabati |
|-------------------------|---------------------|---|
| qiz, oqila, hayoli | Ifodalanmish, belgi | <i>Oqila, hayoli qiz</i> <i>Oqila, hayoli-qurshov,</i> kengaytiruvchi; <i>Qiz-kengayuvchi</i> |
| Dangasa, ayiq | Uslubiy sinonim | <i>dangasa ayiq</i> <i>dangasa-kengaytiruvchi, ayiq-</i> kengayuvchi |
| Oqil, zukko, donishmand | mutlaq sinonim | <i>oqil va zukko donishmand</i> <i>Bilimli, zukko-kengaytiruvchi,</i> <i>donishmand-kengayuvchi</i> |

Markaz va qurshov munosabatida elementlarning o'zaro bog'liqligi, ya'ni mazmun jihatdan o'xshashligida-semantik korrelyatsiyasida polisemantik so'zlar ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ularning ma'nolari shartli ravishda bir-birini taqozo etuvchi mikrosistemani tashkil etadi. F. A. Litvin ko'p ma'noli so'zlar o'rtasidagi quyidagi 3 xil munosabatni farqlaydi:

1. Qo'shilish
2. Kesishish
3. Semantik omonimiya (Литвин, 1984:119)

Mazmuniy qurilishda asosiy o'rin tutuvchi qo'shilish va kesishish munosabati denotativ ma'no orqali aniqlanadi, zero mazmuniy maydon markazida so'zning asl ma'nosi yadro sifatida o'rin egallagani uchun konnotativ ma'nolar unga bevosita yoki bilvosita bo'ysunadi.



Bunday munosabatlarda dominant va semantik o'zgaruvchanlikning izohlanishi bilan bog'liq masalalar turlicha aspektlarda yoritilgan bo'lib, jumladan, E. V. Kuznetsova so'z maqomi haqidagi tadqiqotiga asosan, polisemantik so'zning invarianti (umumiy mazmuni) sifatida uning oddiy umumiy ma'nosi emas, alohida modifikatsion shaklini olish kerakligini ta'kidlaydi va bunday ma'noni "umumlashgan ma'no" deb ataydi (Кузнецова, 1983:212).

Ushbu modifikatsiyaning maqomi va ahamiyati shundayki, u ("umumlashgan ma'no") boshqa barcha hosila ma'nolarning yuzaga kelishi uchun asos sanaladi, ikkilamchi ma'nolar va genetik ma'noni bog'lovchi halqa sifatida xizmat qiladi.

Sintaksis tarixida gapning tarkibi, uning tahlili har doim muhim o'rin egallab kelgan. Sintaksisning shunday fundamental muammolari - birlamchi sintaktik tahlil, sintaktik aloqalar tushunchalari, gap bo'laklarining iyerarxiyasi, gapning tuzilishi tamoyillari har xil sintaktik maktablarda ko'rib chiqilgan. Tilshunoslik sohasi rivojlanishi bosqichlarining har birida, gap bo'laklarini ajratish masalasida xilma-xilliklar kuzatilgan.

An'anaviy tilshunoslikda ikkinchi darajali bo'laklar tahlilida yakdillik mavjud emasligining boisi shundaki, fakultativ bo'laklarni ajratishda qo'llanadigan ob'yektiv kriteriyalar turli xildir.

Ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishning ob'yektiv kriteriyalari XIX asrning ikkinchi yarmida F. I. Buslayev, A. A. Potebnya ishlarida olg'a surildi. Bu olimlar tomonidan belgilangan asosiy tamoyillar D. N. Ovsyaniko-Kulikovskiy, A. A. Shaxmatov, A. M. Peshkovskiy tomonidan davom ettirildi. Yuqoridagi barcha tilshunoslar ongli ravishda yoki intuitiv holatda gap bo'laklari masalasida quyidagi holatdan kelib chiqdilar: Gapning har bir bo'lagi ma'no bilan birga material substratga, shaklga ega bo'lishi kerak; faqat shu material substratga ega bo'lgandagina gap bo'lagi ob'yektiv xarakter kasb etadi, til faktiga aylanadi (Nurmonov, 1988: 42).

O'zbek tilshunosligida (rus tilshunosligida ham) odatda gap tarkibidagi konstuentlarga bilvosita yoki bevosita bog'langan fakultativ bo'laklar gap tarkibidan bir vaqtda ajratiladi. Bunday sintaktik tahlil keng tarqalgan ajratish bo'lib, dastlab abligatorlar, so'ng esa fakultativ bo'laklar aniqlanadi:

Kishining kimligi o'zidan "kattalar"ga emas, "kichiklar"ga ko'rsatgan muomalasiga qarab bilinadi jumlasida abligatorlar bilinadi (kesim) va kimligi (subyekt) ga ajratilishi bilan bir vaqtda kishining (qaratqich aniqlovchi), ko'rsatgan (sifatlovchi aniqlovchi), o'zidan, kattalarga, kichiklarga, muomalasiga (vositali to'ldiruvchi) kabi fakultativ bo'laklar-ikkinchi darajali bo'laklarga ham ajratiladi.

Ta'kidlanganidek, o'zbek va rus tilshunosligida gapning tarkibida tobe vaziyatda muayyan so'roqqa javob bo'luvchi har qanday ikkinchi darajali bo'lak gap tarkibidan bir vaqtda ajratilishi ko'pchilik tilshunoslar uchun odatiy holga aylandi.

Masalan: *Baxtli inson barchani o'ziga o'xshatadi. (S. A.)* jumlasida ikki bosh bo'lakka - *inson* (ega) va *o'xshatadi* (kesim)ga ajratilishi bilan birga *barchani* (to'ldiruvchi) *baxtli* (aniqlovchi) singari ikkinchi darajali bo'laklarga ham ajratiladi. Dastlab gap tarkibidagi bosh bo'laklar aniqlanadi va undan so'ng gapning ikkinchi darajali bo'laklari belgilanadi. Ikkinchi darajali bo'laklarni belgilashda ularning gap yoki uning bir qismining bo'lagi ekanligi hisobga olinmaydi.

An'anaviy tilshunoslikning ana shu cheklangan tomonlarini ayrim turkologlar payqaganlar va aniqlovchining gapning konstruktiv bo'lagi ekanligiga shubha bilan qaraganlar. Jumladan, A. N. Baskakov fikricha, aniqlovchining miqdoridan qat'i nazar, har qaysi aniqlanmish gap tarkibida o'zining sintaktik pozitsiyasiga ega bo'ladi va aniqlovchi bilan birgalikda bir butun holda bir gap bo'lagi sanaladi. N. K. Dmitriyev ham aniqlovchi-aniqlanmish munosabati gapning tuzilishi doirasiga kirmasligini ta'kidlagan edi.

3. Markaz-qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda voqelanishi

Yaqiniga qadar mavjud darslik va qo'llanmalarda gap bo'laklari bosh bo'laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) sifatida o'rganilib, tilshunosligimizda gap bo'laklarining "Ega o'z sostavidagi bo'laklarga hokim (shu sostavning bosh elementi) bo'lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o'z sostavidagi bo'laklarga nisbatan hokimdir" degan nazariya yetakchilik qilib keldi. So'nggi yillarda bu fikrga qarshi o'laroq "Kesim gapning fikriy markazi bo'lib, gapdagi barcha bo'laklar uning kengaytiruvchilaridir" degan qarash ilgari surildi. Ayrim Yevropa tillari, xususan, rus, ingliz, nemis tillarida aksariyat hollarda kesim egasiz shakllana olmaydi, gapda fikr to'la ifodalanishi uchun ega ishtirok etishi shart. Jumladan, ingliz tilida tasdiq va inkor gaplarda ushbu LSQ quyidagicha voqelanadi:

Ega+kesim+to'ldiruvchi+(hol)
(Subject+predicate+object[direct, indirect]+place+time)


I started reading a new scientific book in my room yesterday.

She is reading a scientific book.

Will you read a scientific book?

Bu tobelikka qo'shimcha ravishda, gapning kesimi vazifa so'zlari bilan o'zgartirilishi mumkin:

Yordamchi fe'l (auxillary verb) shaxs-son, zamon, mayl, nisbat yoki tasdiq/inkor oid ma'lumotlarni qo'shish orqali verbal kesimni o'zgartiradi.



Kesimning gap bo'lagi emas, gapning o'zi ekanligi yana shu bilan dalillanadiki, gap bo'lagi tobe munosabatda bo'lgan ikki sintaktik birlikning tobe vaziyatda turgan qismiga nisbatan belgilanadi. Tobe qismning sintaktik pozitsiyasi aniq bo'ladi. Hokim qismning sintaktik pozitsiyasi esa sintaktik aloqa zanjirining boshqa halqasi uchun tobe vaziyatdagi holatiga qarab aniqlanadi. Ko'rinadiki, gap bo'lagining muhim belgisi tobe vaziyatda bo'lishdir. Bu nuqtayi nazardan kesim hech qachon tobe vaziyatda kelmaydi. U tobe vaziyatdagi sintaktik birliklar bilan kengayadi. Ergash gap vazifasida kelganda ham tobe vaziyatdagi so'z-shakllar bilan kengayadi. Bosh gapga tobe bo'lib kelishi esa boshqacha qonuniyat bilan izohlanadi. Shuning uchun L. Tenyer nazariyasi negizida bog'liqlik va tobelik yotadi. Bunga ko'ra, kesimga tobe bog'lanib, uning tarkibini kengaytiruvchi va mazmunini konkretlashtiruvchi a'zolar *yunktiv* va *translyativlar* (ba'zi adabiyotlarda *aktantlar* yoki *argumentlar* va *sirkonstantlar*) sanaladi. Bu nuqtayi nazaridan ega ham to'ldiruvchi va hollar singari aktantlar qatorida turadi, kesimning ega pozitsiyasidagi aktanti sanaladi.

Demak, ayni paytda uzluksiz ta'lim bo'g'ini – umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim darsliklarida kesimga berilgan: "Kesim gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi" (Qodirov va boshq., 2014:57), "Gapni gap qilib shaklanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak – kesim", "Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi", "Kesim – tasdiq-inkor, zamon, modallik, shaxs-son ma'no va shakllariga ega bo'lgan so'z, gap markazini tashkil qiluvchi bo'lak" ta'riflarining nazariy asosida kesimning o'zbek tili gap qurilishida tutgan o'rni yotadi (Nurmonov va boshq., 2015:468-470). Gap lisoniy qurilishida bo'laklarning pog'onali o'rinishi quyidagicha beriladi:



Mantiqiy "subyekt + kesim" (ya'ni kesimsiya, kesimiv aloqa) ning mohiyatan "ega+kesim" (gap tarkibiy qismlari orasidagi grammatik munosabatdan farqlanishi Arastu zamonidan hozirgacha tilshunoslar va mantiqshunoslar tomonidan e'tirof etib kelinadi. Kesimiy mantiqiy atama va mantiqiy hodisa in'ikosi ekanligini ta'kidlagan holda aytish mumkinki,

gapning mundariyasi [Pm] dadir. [Pm] gap kesimini, ya'ni uning markazini grammatik jihatdan shakllantiruvchi kategoriyaning son-sanoqsiz nutqiy ko'rinishlari umumiy ramzidir. Bu umumiy ramzning muayyan shakllari nechta? degan savol tug'ilishi mumkin. Biz bunga faqat shunday javob bera olamiz: uning nutqiy ko'rinishlari cheksizdir. Tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-son ma'nolari va qo'shimchalarining nutqiy, ma'noviy va moddiy rang-barangligiga bu ramz neytral-befarqdir. Quyida izlanishga doir bo'lgan bir xususiyatni alohida ta'kidlab o'tish lozim: kesim [W-word] va [Pm-predicate marker] kabi alohida qismlardan iboratdir. Ma'lumki, mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l va boshqa turkumga oid istagan bir so'z gapda kesim vazifasida kela oladi va gap markazi maqomini egallaydi. Qiziq tomoni shundaki, [WPm] qolipidagi [W] va [Pm] kabi nisbatan mustaqil bo'lgan qismlar o'zaro faqat gap markazi mavqeyida kelgandagina birikadi. [W] esa gapda xilma-xil pozitsiyalarda kelishi mumkin. Undan farqli ravishda [Pm] har qanday atov birlik bilan bog'langanda unga potensial gap mavqeyini beradi. Aytish joizki, [Pm] atov birligi vazifasida kela olmaydigan til birliklari (chunonchi, fonema, grammatik morfema va h.z.) bilan birika olmaydi. Bu esa [Pm] – ya'ni kesimlik ko'rsatkichi gapning negizini, asosini tashkil etishini anglatadi.

So'z gapning qurilish ashyosi bo'lganligi sababli gap qurilishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi, ya'ni markaz sifatida o'z atrofida ma'lum bir leksemalarni birlashtirishi yoki kengaytiruvchi sifatida qurshov vazifasini bajarishi mumkin.

4. Gapning LSQidagi markaz va qurshov munosabati: gap va so'z kengaytiruvchilarining mavqeyi

Bunday markaz va qurshov munosabati gapning LSQida ikki xil ko'rinishda yuzaga chiqadi:

1. Leksik ma'no anglatuvchi qism-[W]ning kengaya olish qobiliyati (valentligi).
2. Kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichi-[Pm]ning kengayish imkoniyati.

Har ikkala tarkibiy qismlarning kengaytiruvchi (aktant)lari o'zaro farqlanadi (Qurbonova, 2001: 120).

Yuqorida aytib o'tilganidek, gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo'laklar ana shu markaziy bo'lakni to'ldirishdagi roliga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. Gap kengaytiruvchilari – gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog'lanuvchi bo'laklar.
2. So'z kengaytiruvchilari – gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldiruvchi bo'laklar sanaladi.

Ma'lumki, gapning markazi sanalgan kesimni ushbu vazifada kelayotgan so'z va kesimlik kategoriyasining valentligi shakllantiradi va gapning lisoniy qurilishida quyidagi nutqiy hodisa yuzaga chiqadi: so'zlar gapning markazini ifodalovchi shaklning kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichiga tobelanadi (Sayfullayeva, Mengliyev, Qurbonova, Abuzalova, Boqiyeva, Yunusova, 2009:335).

Kesimlik shakllariga bog'langan bunday so'zlar bevosita kesimli ko'rsatkichi bilan aloqador bo'lgani va gapni kengaytirgani uchun gap kengaytiruvchilari deb ataladi. Gap kengaytiruvchilari gapdagi biror-bir so'zning leksik ma'nosi bilan emas, balki gapning markazini shakllantiruvchi grammatik vositalar bilan bog'langan bo'ladi. Buni quyidagi misolda ko'rib chiqamiz:

Erta biz shaharning eng so'lim maskaniga sayohat qilamiz.


Gap markazining leksik ma'no anglatuvchi qismi-fe'l leksemasi "sayohat qil" (W), grammatik ma'no anglatuvchi kesimlik kategoriyasi esa "-a+miz" (Pm). Subyekt (*biz*) kesimlik grammatik shakli, xususan, shaxs-son ma'nosini anglatuvchi *-miz* qismi bilan semantik

valentlik hosil qilgan bo‘lib, u odatda kesimlik kategoriyasi tarkibidagi shakl bilan shaxs va sonda moslashadi, ya‘ni ushbu ma‘noni o‘zida muayyanlashtiradi

(Ba‘zi mustasno holatlarda subyekt va kesimning shaxs yoki son shakli o‘zaro nomuvofiq bo‘lishini ham ko‘rish mumkin. Masalan: *Kamina xizmatigizga bel bog‘lagan.* – **gan**-III shaxs birlikdagi zamon shakli, **kamina**-I shaxs birlikdagi ega).

Temporalis (*ertaga*) esa kesimning ham leksik ma‘no ifodalovchi qismi, ham kesimlik ko‘rsatkichi [W+Pm] bilan bog‘lanib, temporallik ma‘nosini muayyanlashtiradi. “Biz” subyektini “boramiz” kesimining [W] qismi leksik ma‘nosi bilan emas, balki [Pm-predicate marker] shaxs va sonni ifodalovchi grammatik shakli bilan valentlik hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, kesimlik kategoriyasining shaxs-son ma‘nosini voqelantiuvchi aktantlar-gap kengaytiruvchisi gapning mazmuniy mundarijasini yuzaga chiqaradigan [Pm] ning ma‘nosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun kesim vazifasida kelgan “boramiz” fe‘li boshqa shakllarga o‘zgartirilsa ham, gapning LSQda lug‘aviy ma‘no ifodalovchi qism [W]da o‘zgarish yuz bersada, kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichi [Pm]da bunday holat voqelanmaydi.

Gapdagi lokalis (o‘rin belgisini ifodalovchi aktant) “*maskaniga*” esa kesimning lug‘aviy ma‘no anglatuvchi “*sayohat qil*” qismiga tobelanadi va gap subyektining mavqeyidan tamomila farq qiladi: lokalis kesimning leksik ma‘no anglatuvchi qismi bilan mazmuniy bog‘langani bois [Pm] kesimlik shakli bilan valentlik hosil qilmaydi va so‘z kengaytiruvchisi sifatida gapda o‘z pozitsiyasini egallaydi Atributiv aloqani shakllantirgan “*so‘lim*” va “*shaharning*” aktantlari (qaratqich va sifatlovchi aniqlovchi) esa o‘z navbatida temporalis bilan tobe-hokimlik aloqasiga kirishadi, ya‘ni gapning konstituentlari (kesimiv minimumni ko‘rsatuvchi ega va kesim) bilan bilvosita bog‘lanadi va, tabiiyki, gap kesimiga, xususan, uning [Pm] shakliga aloqador bo‘lmagani bois so‘z kengaytiruvchilari vazifasida keladi. Gapdagi bo‘laklar valentligini quyidagicha ifodalash mumkin:




Gap va so‘z kengaytiruvchisining gapdagi maqomini yana bir misol orqali chuqurroq tahlil qilamiz:

Hozir o‘quvchilar o‘qilgan asar taqrizini yozmoqdalar.


Gap obligatorlaridan biri sanalgan kesimning lug‘aviy ma‘no ifodalovchi qismi “yoz” (W), kesimlik ma‘nosini anglatuvchi shakl esa “-moqda+lar” [Pm]. Gapning egasi (o‘quvchilar) kesimlik kategoriyasining “-moqda+lar” [Pm] qismiga bog‘langan bo‘lib, u kesimlik kategoriyasi tarkibidagi shaklning shaxs va son ma‘nosini o‘zida muayyanlashtirgan: III shaxs, ko‘plik, tasdiq, hozirgi zamon kabi grammatik ma‘nolarni yuzaga chiqargan.

Shu bois kesim vazifasida kelgan “yozmoqdalar” fe‘li boshqa shakllarga o‘zgartirilsa ham, gapning LSQda lug‘aviy ma‘no ifodalovchi qism [W]da o‘zgarish yuz bersada, kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichi [Pm]da esa bunday holat voqelanmaydi:



Baʼzan, yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, mustasno holatlarda ega va kesimlikning shaxs yoki son shakli oʻzaro moslashmasligi ham mumkin. Masalan: *Bunday voqealarni koʻrib hayron qolasan kishi*. –**san**-II shaxs birlikdagi shaxs-son shakli, **kishi**-III shaxs birlikdagi ega.

Payt holi (hozir) esa feʼl-kesimga tobelangani bois uning har ikki qismi: atov birlik va grammatik shakliga bogʻlanadi, yaʼni “*hozir*” temporalisi [W+Pm] aloqador. Gapdagi vositasiz toʻldiruvchi (taqriz) esa kesimning semantik valentligini belgilovchi “yoz” qismiga bogʻlanadi, sifatlovchi aniqlovchi (oʻqilgan) qaratqich aniqlovchiga (asar), qaratqich aniqlovchi esa oʻz navbatida vositasiz toʻldiruvchiga tobelanadi. Natijada ushbu nomustaqil boʻlaklar gap markazi va konstuentlaridan biri sanalgan kesim (kesimivlikni koʻrsatuvchi grammatik shakli) bilan bevosita valentlik hosil qilmagani uchun soʻz kengaytiruvchisi pozitsiyasini egallaydi. Gapdagi boʻlaklar valentligini quyidagicha ifodalash mumkin:



Gap tarkibidagi mustaqil soʻzlik mavqeyini saqlagan holda kengayish qobiliyatiga ega barcha soʻzlarning ana shu qobiliyatini yuzaga chiqishini taʼminlovchi leksik birlik **soʻz kengaytiruvchilari** deb ataladi (Sayfullayeva, Mengliyev, Qurbonova, Abuzalova, Boqiyeva, Yunusova, 2009:336). Soʻz kengaytiruvchisi maʼlum bir soʻzga bevosita, gapning markazidagi kesimlikni shakllantiruvchi grammatik vositalarga bilvosita bogʻlanadigan boʻlak, muayyan soʻzning maʼnoviy xususiyatini ochib berishga, kengaytirishga xizmat qiladigan, oʻziga nisbatan hokim boʻlgan soʻz bilan semantik valentlik hosil qiladigan tarkibiy qismdir. Aytib oʻtish joizki, “soʻz kengaytiruvchilari” atamasini faqat soʻzning soʻzga bogʻlashuvi maʼnosida tushunmaslik kerak. Soʻz valentligi quyidagi 2 holatda yuzaga chiqadi:

1. Soʻz (oʻzak) ga qoʻshimcha qoʻshish orqali kengayish.
2. Soʻzning soʻzga birikishidan hosil boʻlgan kengayish (Qoʻchqortoyev, 1977:38).

Maqolada ushbu hodisaning ikkinchi koʻrinishi- leksemalar valentligi tahlilga tortilgani bois ushbu kengayish hodisasiga oid namunalarni koʻrib chiqamiz.

Bunday bogʻlashuvning keng tarqalgan koʻrinishi aniqlovchining qurshov vazifasida markaz atrofiga birlashishi boʻlsa-da, boshqa boʻlaklar, xususan, toʻldiruvchi ham ham soʻz kengaytiruvchilari vazifasida kelishi mumkin.

Toʻldiruvchi barcha boʻlaklarni kengaytirib, nomustaqil boʻlak-soʻz kengaytiruvchisi boʻlib kelishi mumkin:

| | | |
|---|---|--|
| . | Ega kengaytiruvchisi | <i>Oilani qadrlaganlar</i> barcha muqaddas narsalarning qadr-qiyamatini biladiganlardir. |
| . | Toʻldiruvchining kengaytiruvchisi | Dangasaning <i>non yeyishini</i> koʻr. |
| . | Sifatlovchi aniqlovchining kengaytiruvchisi | Bir kun <i>tuz ichgan</i> joyingga qirq kun salom ber. |
| . | Qaratqich aniqlovchining kengaytiruvchisi | <i>Ilmni qadrlaganning el oʻrtasida martabasi ulugʻ boʻladi.</i> |
| . | Holning kengaytiruvchisi | <i>Orzularingizni amalga oshirish uchun</i> tinimsiz |

| | | |
|---|----------------------------|---|
| . | | mehnat qiling. |
| . | Kesimning kengaytiruvchisi | <i>Ertaga o'quvchilar o'qilgan asar taqirizini yoz+adi+lar.</i> |

Yuqoridagi misollarning barchasida aktantlar-vositasiz to'ldiruvchi o'zi ergashib kelgan bo'lak (markaz) qanday mavqeda kelsa, xuddi shu mavqeda kelishi va, shuningdek, istalgan gap bo'lagiga tobelanib, kengaytirib kelishi ma'lum bo'ladi.

5. Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek tilshunosligining navbatdagi vazifasi bo'lgan gapning LSQida so'zlar bog'lashuvini kengroq tahlil qilish orqali aktantlarning gap qurilish sathidagi vaziyatini aniqlashtirish, gapning til bosqichidagi lisoniy gap bo'laklari (tarkibiy qismlari) o'rtasidagi semantik, grammatik bog'lanishni oydinlashtirishga yo'naltirilgan. Tilning lisoniy tizimidagi markaz qurshovlilik munosabatining sintaktik sathda voqelanishi, gap tarkibidagi bo'laklarning markaziy bo'lak- kesim (atov birlik[W]+kesimlik ko'rsatkichi [Pm])ni to'ldirishdagi o'rni; mutlaq hokim bo'lak-konstuent (kesim)ga bilvosita yoki bevosita bog'langan aktant (tobe bo'laklar)larning nisbiy pog'onali-iyerarxik o'rinishuvi yoritilgan. Tilshunoslikdagi pog'onaviylik tamoyiliga asosan dastlabki bosqichda qurshov vazifasini bajargan bo'lak (jumladan, [Pm] bilan valentlik hosil qilgan gap kengaytiruvchisi yoki [W] atov birligiga tobelangan so'z kengaytiruvchisi) ning keyingi bosqichda mos ravishda so'z kengaytiruvchilari bilan kengayib markaz mavqeyida kelishini ochib berishga qaratilgan.

Adabiyotlar

- Iskandarova, Sh. M. (1999). *O'zbek Tili Leksikasini Mazmuniy Maydon Sifatida O'rganish (Shaxs Mikromaydoni): Filol. Fanlari d-ri... dis.* Toshkent.
- Nurmonov, A. va boshq. (2015). *Hozirgi O'zbek Adabiy Tili. Akademik Litsey va Kasb-Hunar Kollejlarining 3-Kurs Talabalari Uchun Darslik.* Toshkent: ILM ZIYO.
- Nurmonov, A. (1988). *Gap Haqidagi Sintaktik Nazariyalar.* Toshkent.
- Qo'chqortoyev, I. (1977). *So'z Ma'nosi Va Uning Valentligi.* Toshkent.
- Qodirov, M. va boshqalar, (2014). *Ona Tili: 8-Sinf Uchun Darslik.* Toshkent: Cho'lpon.
- Qurbonova, M. M. (2001). *O'zbek Tilshunosligida Formal-Funksional Yo'Nalish va Sodda Gap Qurilishining Talqini: Filologiya fanlari doktori... dis.* Toshkent.
- Sayfullayeva, R.; Mengliyev, B.; Qurbonova, M. M.; Abuzalova, M.; Boqiyeva, G.; Yunusova, Z. (2009). *Hozirgi O'zbek Adabiy Tili.* Toshkent.
- Баскаков, Н. А. (1961). *Простое предложение в каракалпакском языке // Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. IIII. Синтаксис.* Москва
- Дмитриев, Н. К. (1961). *Детали простого предложения.* Москва.
- Кузнецова, Е. В. (1983). *О статусах слова. Исследования по семантике...* - Уфа.
- Литвин, Ф. А. (1984). *Многочисленность слов в языке и реч.* Москва.: В.ш.
- Храковский, Б. С. (1985). *Концепция членов предложения в русском языкознании XIX века.-В кн.: Грамматические концепции в языкознании XIX века.* Л.

Etik, Beyan ve Açıklamalar

1. Etik Kurul izni ile ilgili;
 Bu çalışmanın yazar/yazarları, Etik Kurul İznine gerek olmadığını beyan etmektedir.
2. Bu çalışmanın yazar/yazarları, araştırma ve yayın etiği ilkelerine uyduklarını kabul etmektedir.
3. Bu çalışmanın yazar/yazarları kullanmış oldukları resim, şekil, fotoğraf ve benzeri belgelerin kullanımında tüm sorumlulukları kabul etmektedir.
4. Bu çalışmanın benzerlik raporu bulunmaktadır.